



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 140 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	



INGLIZ TILINI O'QITISHDA INTERAKTIV METODLARNI TAKOMILLASHTIRISH MODEL HAMDA ULARNING TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Narzullayeva Firuza Olimovna

Buxoro davlat universiteti

Ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasida dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli ishlab chiqilib, uning ta'lim samaradorligiga ta'siri ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, kommunikativ ta'lim, konstruktivistik yondashuv, hamkorlikda o'qitish va kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillariga tayangan holda amalga oshirilgan. Interaktiv metodlarning tizimli va bosqichma-bosqich qo'llanilishi talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, motivatsiyasi va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: interaktiv metodlar, ingliz tili ta'limi, kommunikativ kompetensiya, student-centered learning, konstruktivizm, CEFR, ta'lim samaradorligi, innovatsion pedagogika.

Abstract: This article develops a model for improving interactive methods in English language teaching and analyzes its impact on educational effectiveness from both theoretical and practical perspectives. The study is based on contemporary pedagogical approaches, including communicative language teaching, the constructivist approach, collaborative learning, and competency-based education. Particular attention is paid to the systematic and stage-by-stage implementation of interactive teaching methods and their role in developing students' communicative competence, critical thinking, learning motivation, and independent learning skills. The findings demonstrate that the proposed model contributes to enhancing the quality of English language instruction by promoting active learner participation, collaborative interaction, and competency-oriented learning outcomes.

Key words: interactive methods, English language teaching, communicative competence, student-centered learning, constructivism, CEFR, educational effectiveness, innovative pedagogy.

Аннотация: В данной статье разработана модель совершенствования интерактивных методов обучения английскому языку и проанализировано её влияние на эффективность образовательного процесса с теоретической и практической точек зрения. Исследование основано на современных педагогических подходах, включая коммуникативное обучение, конструктивистский подход, обучение в сотрудничестве и компетентностно-ориентированное образование. Особое внимание уделено системному и поэтапному применению интерактивных методов обучения, а также их роли в развитии коммуникативной компетенции студентов, критического мышления, учебной мотивации и навыков самостоятельного обучения. Результаты исследования показывают, что предложенная модель способствует повышению качества обучения английскому языку за счёт активизации учебной деятельности, развития сотрудничества и формирования ключевых компетенций.

Ключевые слова: интерактивные методы, обучение английскому языку, коммуникативная компетенция, student-centered learning (студентоцентрированное обучение), конструктивизм, CEFR, эффективность образования, инновационная педагогика.

KIRISH

XXI asr ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitish mazmuni tubdan o'zgarib, bilimlarni uzatishga yo'naltirilgan an'anaviy modeldan kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan ta'lim modeliga o'tish jarayoni kuzatilmoqda. Globallashuv, xalqaro akademik mobillik, raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida ingliz tilini egallash nafaqat lingvistik bilim, balki kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli xorijiy til ta'limida o'quvchining passiv tinglovchi emas, balki bilimni faol yaratuvchi subyekt sifatidagi ishtirokini ta'minlaydigan interaktiv metodlarni takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

So'nggi o'n yilliklarda xorijiy til metodikasi kommunikativ yondashuv, konstruktivistik pedagogika va kompetensiyaga asoslangan ta'lim konsepsiyalarining rivojlanishi natijasida sezilarli darajada yangilandi. Mazkur yondashuvlar til o'rganishni grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilan cheklamasdan, real kommunikativ vaziyatlarda til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Ayniqsa, Common European Framework of Reference for Languages (CEFR) xorijiy til ta'limining mazmuni va natijalarini kommunikativ kompetensiyalar orqali baholashni tavsiya etadi. Bunday yondashuv interaktiv metodlardan foydalanishni metodik jihatdan zarur vositaga aylantiradi.

Pedagogika va xorijiy til metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar ta'lim oluvchilarni bilish faoliyatining markaziga olib chiqadi, ularning o'zaro hamkorligini kuchaytiradi va reflektiv fikrlashni rivojlantiradi. Biroq amaliyotda ushbu metodlardan foydalanish ko'pincha fragmentar xarakterga ega bo'lib, ularning pedagogik imkoniyatlari to'liq namoyon bo'lmaydi. Ko'plab o'qituvchilar interaktiv metodlarni alohida usullar sifatida qo'llaydi, biroq ularni yagona didaktik tizimga integratsiya qilish, o'quv maqsadlari, baholash mezonlari va kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirish yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Natijada interaktiv metodlarning haqiqiy ta'lim samaradorligiga ta'siri pasayadi.

Muammoning yana bir jihati shundaki, aksariyat ilmiy ishlarda interaktiv metodlarning samaradorligi alohida usullar – Role Play, Brainstorming, Think–Pair–Share, Project-Based Learning yoki Problem-Based Learning misolida o'rganilgan bo'lsa-da, ularni yagona pedagogik model sifatida takomillashtirish masalasi yetarlicha yoritilmagan. Bu esa metodlarning o'zaro integratsiyasi, ketma-ketligi va ta'lim natijalariga kompleks ta'sirini baholash imkoniyatini cheklaydi. Shuningdek, interaktiv metodlarning raqamli platformalar, sun'iy intellekt vositalari va gibrid ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashuvi bo'yicha ilmiy izlanishlar hali ham rivojlanish bosqichida.

Mazkur tadqiqot ingliz tilini o'qitish jarayonida interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan aralash metodologiya (mixed-methods research) asosida tashkil etildi. Aralash metodologiyadan foydalanishning asosiy sababi interaktiv metodlarning ta'lim jarayoniga ta'sirini faqat statistik ko'rsatkichlar orqali emas, balki talabalarining o'quv faoliyati, motivatsiyasi, kommunikativ faolligi va reflektiv fikrlashidagi o'zgarishlarni kompleks baholash zarurati bilan izohlanadi. Shu sababli tadqiqotda miqdoriy (quantitative) va sifat (qualitative) tahlil usullari o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llanildi.

Tadqiqot kvazi-eksperimental (quasi-experimental) dizayn asosida tashkil etildi. Ushbu dizayn interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan ta'limning samaradorligini an'anaviy o'qitish usullari bilan taqqoslash imkonini beradi. Eksperiment davomida nazorat guruhi va tajriba guruhi shakllantirildi. Nazorat guruhida ingliz tili mashg'ulotlari amaldagi o'quv dasturi asosida olib borilgan bo'lsa, tajriba guruhida muallif tomonidan ishlab chiqilgan interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli qo'llanildi.

Eksperiment 16 hafta davomida olib borildi. Tadqiqotda ingliz tili yo'nalishida tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirok etdi. Shundan 60 nafari tajriba guruhini, 60 nafari esa nazorat guruhini tashkil etdi. Guruhlarni shakllantirishda talabalarining dastlabki til darajasi, yoshi va akademik ko'rsatkichlarining o'xshashligi hisobga olindi. Bu omil eksperiment natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish masalasi zamonaviy pedagogika va xorijiy tillarni o'qitish metodikasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. J. Harmer, H. D. Brown va D. Nunan o'z tadqiqotlarida kommunikativ yondashuv hamda interaktiv metodlarning talabalarining nutqiy faolligi, mustaqil fikrlashi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Shuningdek, J. Dewey va L. Vygotskiy ta'lim jarayonida hamkorlik, faol o'qitish va talabaning mustaqil bilim egallashiga alohida e'tibor qaratgan.

So'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlarda Problem-Based Learning, Case Study, Project-Based Learning, Role Play, Debate va Flipped Classroom kabi interaktiv metodlarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari keng yoritilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining kommunikativ kompetensiyasi, tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ingliz tilini o'qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida Interactive Learning Enhancement Model (ILEM) ishlab chiqildi. Ushbu model interaktiv metodlarni alohida usullar sifatida emas, balki yagona didaktik tizim sifatida tashkil etishga asoslanadi. Modelning nazariy asosini konstruktivizm, ijtimoiy konstruktivizm, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim hamda reflektiv pedagogika tashkil etadi.



Model oltita o'zaro bog'liq komponentdan iborat.

1. Motivatsion komponent

Ta'limning dastlabki bosqichida talabalarni faol o'quv faoliyatiga jalb qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Mazkur bosqichda gamifikatsiya, ice-breaker, warm-up, Quizizz, Kahoot va muammoli savollar qo'llanildi. Ushbu faoliyatlar talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish, darsga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hamda psixologik qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

2. Kommunikativ komponent

Ikkinchi bosqich talabalarning ingliz tilida erkin muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratildi. Bu bosqichda Think–Pair–Share, Debate, Role Play, Information Gap va Fishbowl Discussion metodlari tizimli ravishda qo'llanildi. Mazkur metodlar til birliklarini real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash imkonini yaratadi.

3. Hamkorlik komponenti

Hamkorlikda o'qitish talabalarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Shu sababli Jigsaw, Cooperative Learning, Peer Teaching va Collaborative Project metodlari asosida guruh faoliyati tashkil etildi. Ushbu bosqich talabalarning o'zaro mas'uliyatini, fikr almashish madaniyatini va liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. Muammoli ta'lim komponenti

Interaktiv metodlarning samaradorligi ularning muammoli vaziyatlar bilan integratsiyalashganligiga bog'liq. Shu sababli Problem-Based Learning, Case Study va Scenario Analysis metodlari qo'llanildi. Talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqin topshiriqlarni hal qilish orqali tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish kompetensiyalarini rivojlantirdilar.

5. Raqamli integratsiya komponenti

Zamonaviy xorijiy til ta'limini raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish mumkin emas. Shu sababli Google Classroom, Padlet, Mentimeter, Quizizz, Wordwall hamda sun'iy intellekt vositalari (masalan, ChatGPT) o'quv jarayoniga integratsiya qilindi. Ushbu vositalar individual ta'lim trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash, tezkor qayta aloqa berish va mustaqil ta'limni rivojlantirish imkonini berdi.

6. Reflektiv baholash komponenti

Modelning yakuniy bosqichi reflektiv faoliyatga asoslanadi. Bu bosqichda Self-assessment, Peer Assessment, Learning Journal va e-Portfolio usullaridan foydalanildi. Refleksiya talabalarga o'z rivojlanishini baholash, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda keyingi o'quv strategiyalarini belgilash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taklif etilgan modelning asosiy afzalligi shundaki, u interaktiv metodlarni tasodifiy yoki alohida usullar sifatida emas, balki ketma-ket va o'zaro bog'langan didaktik tizim sifatida tashkil etadi. Motivatsiyadan refleksiya-gacha bo'lgan uzluksiz pedagogik sikl talabalarning bilish faolligini oshiradi va o'quv natijalarining barqarorligini ta'minlaydi. Modelning yana bir muhim jihati shundaki, u CEFRning kommunikativ kompetensiya talablari bilan uyg'unlashgan bo'lib, tinglab tushunish, o'qish, yozish va og'zaki muloqot ko'nikmalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, model Bloomning yangilangan taksonomiyasi bosqichlari (eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yaratish) bilan moslashtirilgan. Har bir interaktiv metod ma'lum kognitiv darajani rivojlantirishga xizmat qilishi sababli, talabalarda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan model nafaqat til kompetensiyasini, balki XXI asr ko'nikmalari - tanqidiy fikrlash, hamkorlik, kreativlik va raqamli savodxonlikni ham rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot natijalari interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli ingliz tilini o'qitish jarayonining turli jihatlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganini namoyon etdi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida o'quv jarayonining barcha asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha o'sish kuzatilgan bo'lsa, nazorat guruhida o'zgarishlar nisbatan past darajada saqlanib qoldi. Bu holat interaktiv metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligini tasdiqlaydi.

Eksperiment boshida har ikkala guruhning ingliz tili bo'yicha tayyorgarlik darajasi deyarli bir xil bo'lib, diagnostik test natijalarida sezilarli farq aniqlanmadi. Bu esa tajriba yakunida kuzatilgan o'zgarishlarni aynan taklif etilgan modelning ta'siri bilan izohlash imkonini beradi (1-jadval).

**1-jadval: Eksperiment boshidagi ko'rsatkichlar**

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Kommunikativ kompetensiya	49,2	48,8
O'quv motivatsiyasi	54,6	55,1
Mustaqil ta'lim	46,3	45,8
Tanqidiy fikrlash	50,2	49,7
Darsdagi faollik	53,8	54,2

Jadvaldan ko'rinadiki, eksperiment boshlanishidan oldin guruhlar o'rtasida katta tafovut mavjud emas edi. Bu esa eksperimentning ichki ishonchliligini ta'minlaydi (2-jadval).

2-jadval: Eksperiment yakunidagi natijalar

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Kommunikativ kompetensiya	60,4	84,6
O'quv motivatsiyasi	61,5	90,8
Mustaqil ta'lim	57,2	83,5
Tanqidiy fikrlash	58,1	86,2
Darsdagi faollik	63,4	92,1

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhida kommunikativ kompetensiya 35 foizga yaqin oshgan. Ayniqsa, og'zaki muloqot, fikrni asoslash, juftlik va guruh bilan ishlash jarayonida talabalar ancha erkin harakat qila boshladilar. Nazorat guruhida esa o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, u ancha past darajada bo'ldi.

Motivatsiya ko'rsatkichlaridagi o'sish ham alohida e'tiborga loyiq. Gamifikatsiya, muammoli topshiriqlar va hamkorlikdagi faoliyat talabalarning darslarga qiziqishini oshirdi. Intervyu natijalari talabalar darslarda faol ishtirok etishdan ko'proq qoniqish hosil qilganini ko'rsatdi.

CEFR mezonlari asosida olib borilgan baholash natijalari tinglab tushunish, o'qish, yozish va gapirish ko'nikmalarining barchasida ijobiy dinamikani ko'rsatdi. Eng yuqori o'sish gapirish kompetensiyasida kuzatildi. Bu holat interaktiv metodlarning asosiy maqsadi muloqot faoliyatini rivojlantirish ekanligi bilan izohlanadi.

Role Play, Debate, Think-Pair-Share va Information Gap kabi metodlar talabalarni real kommunikativ vaziyatlarga jalb qilgani sababli, ular grammatik bilimlarni amaliy nutqda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada nutq ravonligi, lug'at boyligi va muloqot strategiyalaridan foydalanish sifati sezilarli yaxshilandi.

Problem-Based Learning va Case Study metodlari talabalarning analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Eksperiment yakunida talabalar murakkab muammolarni tahlil qilish, dalillarni baholash va asoslangan xulosalar chiqarish bo'yicha ancha yuqori natijalarni namoyon etdilar.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv metodlardan muntazam foydalanilgan guruhlarda savol berish, muqobil yechimlarni taklif qilish va fikrlarni dalillar bilan asoslash holatlari sezilarli darajada ortgan.

Raqamli platformalardan foydalanish talabalarning mustaqil ta'limini sezilarli darajada faollashtirdi. Google Classroom, Padlet va elektron portfoliolar yordamida talabalar darsdan tashqari vaqtda ham o'quv faoliyatini davom ettirdilar. Reflektiv kundaliklar tahlili ko'rsatishicha, talabalar o'z o'quv jarayonini rejalashtirish va baholash ko'nikmalarini rivojlantirgan.

Jigsaw va Collaborative Learning metodlari guruh ichidagi o'zaro muloqotni kuchaytirdi. Dars kuzatuvlari davomida talabalar o'rtasida vazifalarni taqsimlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va umumiy qaror qabul qilish holatlari ko'paygani qayd etildi. Bu esa ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qildi.

Eksperiment natijalari statistik jihatdan ham tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari natijalari Studentning t-testi yordamida taqqoslandi. Hisob-kitoblar tajriba guruhi foydasiga statistik ahamiyatga ega farq mavjudligini ko'rsatdi ($p < 0,05$). Bu natija taklif etilgan modelning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ta'siri tasodifiy emasligini, balki pedagogik jihatdan asoslanganligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, eksperiment natijalari interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli ta'lim jarayonining barcha asosiy komponentlariga kompleks ta'sir ko'rsatishini isbotladi. Model faqat til kompetensiyalarini rivojlantirish bilan cheklanmay, balki talabalarning motivatsiyasi, mustaqil ta'lim faoliyati, tanqidiy fikrlashi, hamkorlik madaniyati va reflektiv ko'nikmalarining rivojlanishiga ham xizmat qildi.

Mazkur natijalar interaktiv metodlarni alohida pedagogik usullar sifatida emas, balki yagona integratsiyalashgan didaktik tizim sifatida qo'llash ta'lim sifatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda uning ta'lim samaradorligiga ta'sirini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlandi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik konsepsiyalar, jumladan kommunikativ yondashuv, konstruktivistik ta'lim nazariyasi, hamkorlikda o'qitish, kompetensiyaviy yondashuv hamda CEFR tamoyillari asosida interaktiv metodlarning integratsiyalashgan modeli ishlab chiqildi va tajriba-sinov jarayonida uning samaradorligi baholandi.

Eksperimental tadqiqot natijalari interaktiv metodlarning tizimli va maqsadga yo'naltirilgan qo'llanilishi talabalarning kommunikativ kompetensiyasi, o'quv motivatsiyasi, tanqidiy fikrlashi, mustaqil ta'lim ko'nikmalari va hamkorlik madaniyatini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi. Ayniqsa, Role Play, Think-Pair-Share, Problem-Based Learning, Project-Based Learning, Jigsaw hamda raqamli platformalar bilan integratsiyalashgan interaktiv faoliyatlar talabalarning ingliz tilida erkin muloqot qilish, muammolarni tahlil qilish va o'z fikrini asosli ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikni namoyon etdi.

Natijalar shuningdek, interaktiv metodlarning samaradorligi ularning soni bilan emas, balki darsning maqsadi, mazmuni, baholash mezonlari va talabalarning individual ehtiyojlari bilan uyg'un holda loyihalashtirishiga bog'liqligini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv metodlarni tanlash va qo'llashda metodik izchillik hamda kompetensiyaviy yondashuv asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brown, H. D. (2014). Principles of language learning and teaching (6th ed.). Pearson Education.
2. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment - Companion volume. Council of Europe Publishing.
3. Ellis, R. (2018). Task-based language teaching: Theory and practice. Cambridge University Press.
4. Goh, C. C. M., & Burns, A. (2012). Teaching speaking: A holistic approach. Cambridge University Press.
5. Harmer, J. (2015). The practice of English language teaching (5th ed.). Pearson Education.
6. Hattie, J. (2023). Visible learning: The sequel. Routledge.
7. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2019). Joining together: Group theory and group skills (12th ed.). Pearson.
8. Nation, I. S. P., & Newton, J. (2020). Teaching ESL/EFL listening and speaking (2nd ed.). Routledge.
9. Nunan, D. (2015). Teaching English to speakers of other languages: An introduction. Routledge.
10. Richards, J. C. (2022). Teaching English through interaction. Cambridge University Press.
11. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.
12. Slavin, R. E. (2018). Educational psychology: Theory and practice (12th ed.). Pearson.
13. Tomlinson, B. (2013). Developing materials for language teaching (2nd ed.). Bloomsbury Academic.
14. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
15. Willis, J., & Willis, D. (2007). Doing task-based teaching. Oxford University Press.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.